

“IMTIYOZLI KREDIT”LAR MEXANIZMIDAGI BO‘SHLIQLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH CHORALARI.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11397031>

SIROJETDINOV Shohruxbek Boqijonovich

Andijon iqtisodiyot va qurilish instituti

“Buxgalteriya hisobi va bank ishi”

kafedra assistenti

Annotatsiya: Aholining tadbirkorlik tashabbuslarini amalga oshirishga moliyaviy ko‘maklashish, ularning daromadli mehnat bilan bandligini ta‘minlash mexanizmlarini yanada takomillashtirish, mahallabay ishlash tizimini yangi bosqichga olib chiqish orqali kambag‘allikni qisqartirish, respublika, viloyat, tuman va shaharlarda ko‘rsatiladigan davlat xizmatlari va manzilli moliyaviy qo‘llab-quvvatlash instrumentlarini bevosita mahalla darajasiga tushirish yo‘lida bir qator ijobiy sa’y-harakatlar amalga oshirilmoqda

Kalit so‘zlar: Imtiyozli kredit, oilaviy tadbirkorlik, aholi bandligi, maqsadsiz madbag‘lar, soliq to‘lovchi, banklar, mahallabay, kambag‘allikni qisqartirish, maqsadsiz, javobgarlarni kamaytirish.

Aholining tadbirkorlik tashabbuslarini amalga oshirishga moliyaviy ko‘maklashish, ularning daromadli mehnat bilan bandligini ta‘minlash mexanizmlarini yanada takomillashtirish, mahallabay ishlash tizimini yangi bosqichga olib chiqish orqali kambag‘allikni qisqartirish, respublika, viloyat, tuman va shaharlarda ko‘rsatiladigan davlat xizmatlari va manzilli moliyaviy qo‘llab-quvvatlash instrumentlarini bevosita mahalla darajasiga tushirish yo‘lida bir qator ijobiy sa’y-harakatlar amalga oshirilmoqda.

Xususan aholiga imtiyozli tarzda ajratilayotgan kreditlar shular jumlasidan. Davlatimiz rahbarining 2021-yil 20-dekabrda qaroriga muvofiq oilaviy tadbirkorlik, daromad topishga qaratilgan muayyan mehnat faoliyati bilan shug‘ullanish va faoliyat turini kengaytirish istagini bildirgan aholi hamda

tadbirkorlik subyektlariga - 3 oydan 6 oygacha bo'lgan imtiyozli davr bilan 3 yilgacha muddatga kreditlar ajratish belgilab qo'yildi.

Moliyaviy instrumentlar qatorida imtiyozli kreditlar aholi xonadoniga qo'shimcha daromad manbaini shakllantirishda katta ahamiyatga ega. Buning uchun moliyaviy mablag'laridan unumli va aniq maqsadlar yo'lida foydalanish zarur.

Qayerda imtiyozli kredit bo'lsa, albatta, mablag'ni boshqa maqsadda ishlatishga moyillik ham bo'ladi.¹⁹ Natijada milliardlab mablag'lar maqsadsiz sarflanishiga olib keldi.

Yuqoridagi qaror qabul qilishiga ko'p bo'lmasdan, aniqrog'i 2022-yilning birinchi choragida birgina bank xodimlari tomonidan **“Har bir oila-tadbirkor” dasturi** bo'yicha 20 mlrd so'mdan ortiq mablag' talon-toroj qilingan.²⁰ Talon-toroj qilingan mablag'lar Milliy bankda 1,3 mlrd, Mikrocreditbankda 2,4 mlrd, Xalq bankida 3 mlrd, Agrobankda 12,3 mlrd so'mni tashkil qiladi. Aholi tomonidan olingan milliardlab kredit mablag'lari ham shu kabi maqsadsiz sarflanayotganligi holatlarini huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan o'tkazilgan tekshirishlar natijasi ko'rsatib turibdi.

Yuqoridagi kabi noxush holatlarga asosan imtiyozli kredit ajratish mexanizmidagi bazi bo'shliqlar keng yo'l ochib bermoqda.

Jumladan: mahallaga biriktirilgan hokim yordamchisi tavsiyasiga ko'ra kredit oluvchi fuqaro bank bilan kredit shartnomasi va mahsulot yetkazib beruvchi bilan onlayn ta'minot shartnomasini tuzadi.

Kreditlar qarz oluvchiga u tomonidan mustaqil tanlangan ta'minotchi bilan tuzilgan shartnoma asosida kelishilgan narxda mahsulot yetkazib berilganidan (ish bajarilganidan) va qarz oluvchi tomonidan qabul qilib olingandan so'ng hamda hokim yordamchisi tomonidan o'tkazilgan monitoring

¹⁹ <https://www.gazeta.uz/ru/2020/03/06/central-bank/>

20 Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi direktori A. Burhonovning 2023-yil 14-iyun kuni “Korrupsiyaga qarshi kurashish Toshkent shahar kengashi majlisi”dagi nutqidan. <https://kun.uz/79388021>

natijasiga ko'ra, qarz oluvchini identifikatsiyalash orqali ta'minotchiga o'tkazib beriladi.

Hokim yordamchilari o'ziga birlashtirilgan mahallalarda dasturlar doirasida ajratilgan kreditlardan maqsadli foydalanilishini va ularning samaradorligini monitoring qilib boradi. Ammo maqsadsiz foydalanish, mahsulotlarni sotib yuborish, holatlariga nisbatan xech qanday ta'sir chora belgilanmagan. Mexanizmdagi bo'shliq ham aynan shu yerda.

Bu kabi bo'shliqni to'ldirish uchun quyidagilarni taklif qilaman.

Soliq siyosatida yaxshi bir mexanizm shakllangan. Ya'ni soliq to'lovchi avval shartni bajaradi so'ng imtiyozga ega bo'ladi.

Avvalambor kambag'allikni qisqartirishda imtiyozli kreditlarga suyanib qolmasdan, bunga rag'batlantirishni kamaytirish, asosiy e'tiborni kasbga o'qitishga, ehtiyojga qarab subsidiya ajratish, davlat sherikchilik faoliyatlariga, dehqonchilik faoliyatini yuritish uchun yer ajratishga qaratish lozim.

Toki kambag'allikni qisqartirishi imtiyozli kreditlar vositasidan foydalanish mexanizmi ishlar ekan, ajratilayotgan kreditlar dastlab tijorat krediti kabi (tijorat kreditlari foizida) ajratilishi lozim. Bunda kredit ajratilganidan so'ng kamda ikki oydan so'ng biroq imtiyozli davrdan chiqmagan holda hokim yordamchisi, bank vakili va boshqa mutasaddilar ishtirokida monitoring o'tkaziladi. O'kazilgan monitoringda kredit oluvchi tomonidan faoliyatini yo'lga qo'yganligi, mablag'lar maqsadli sarflanganligi kuzatilsa dalolatnoma tuzilib, bankka taqdim qilinadi. Shundan so'ng kredit imtiyozli deb ataladi va imtiyozli fozga o'zgartiriladi.

Aksincha holat aniqlangan holda esa xuddi shunday dalolatnomaga muvofiq fuqaro kreditni tijorat krediti kabi yuqori foizda to'lashni davom ettiradi va bu kredit imtiyozli xususiyatini yo'qotadi.

Bu bilan maqsadsiz sarflangan kreditlarga javobgarlarni kamaytirish va imtiyozli kredit mablag'larini xavoga uchib ketishiga ta'sir ko'rsataolgan bo'lamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1) O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
- 2) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 3-dekabrdaagi “Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta’minlash va kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari to‘g‘risida”gi Farmoni.
- 3) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 3-dekabrdaagi “Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta’minlash va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha hokim yordamchilari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori.
- 4) Қобулов Х. А. Худуд молиявий салоҳиятини оширишнинг солиқ маъмуриятчилиги омили //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 4. – С. 1825-1833.
- 5) Kobulov K. ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИДА ИННОВАЦИОН ХУДУДИЙ КЛАСТЕРЛАРНИ ШАКЛЛАНТИРИШНИНГ ЗАРУРЛИГИ ВА МУВАФФАҚИЯТЛИ РИВОЖЛАНТИРИШ ОМИЛЛАРИ //Архив научных исследований. – 2020. – Т. 35.
- 6) <https://www.gazeta.uz/ru/2020/03/06/central-bank/>
- 7) <https://kun.uz/79388021>